

STUDENT DESIGN - TO DEVELOP TECHNOLOGICAL COMPETENCE

Zulayxo Islomovna Jurayeva

Teacher of "Applied Sciences and Methods of Extracurricular Education" Samarkand Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Education

Abstract:

This article discusses educational technologies and didactic support for the development of design and technological competence of students through technology lessons.

Keywords: clothing design, graphic knowledge, design and technology knowledge, technical modeling of clothing.

Jahon miqyosida ishlab chiqarish va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonida o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, loyihalash-texnologik kompetentlikni ta'limning innovatsion texnologiyalari asosida rivojlantirish, ilg'or texnologiya va elektron dasturlar, uskunalardan keng foydalanish, o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullarini integratsiyalash masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Texnologiya fani mazmunida kasblarga yo'naltirish, dars va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodkorligini tarbiyalash, ularning yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Maktab o'quvchilariga robototexnika, modellashtirish, konstruksiyalashtirish, programmashtirish, 3D – loyihalashtirish, elektron ta'lim resurslari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishga alohida ahamiyat berilmoqda. Xususan, Princeton University (AQSH), Ta'lim texnologiyalari navigatori axborot-metodik markazi (Rossiya), Cyber University (Janubiy Koreya) kabi nufuzli ilmiy tadqiqot markazlari ta'lim sifatini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilib, salmoqli amaliy natijalarga erishilgan.

XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, bu jarayonda kasb ta'limi o'qituvchilarida loyihalash-texnologik kompetentlikni rivojlantirish metodlarini ishlab chiqish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, professional ta'lim dasturlarini YUNESKO tomonidan qabul qilingan ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashtirish, o'quv jarayoniga Milliy kvalifikatsiya tizimi to'laqonli joriy etish, tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlarida ta'lim mazmunini loyihalash, kasbiy kompetensiyalarni tuzilmalarga ajratish, ta'limning yangi metodik modellarini yaratish va ularni muayyan ta'lim amaliyotida qo'llash talab etiladi.

Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tendensiyalari asosida texnologiya fanini isloh qilish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilib, uning samaradorligini oshirish orqali malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada, texnologiya fani o'quvchilarda loyihalash-texnologik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha ta'lim texnologiyalari va didaktik ta'minotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstruktorlik -texnologik kompetentlik kasbiy kompetentlikning asosiy tarkibiy qismi bo'lib:

1. Konstruktorlik bilim, ko'nikma va malakalar. Ular tayyor o'quv ma'lumotini (matnlar, sxemalar, jadvallar va boshqalar); ko'rgazmali didaktik qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tayanch konspektlar va boshqalarni yaratish; ta'lim metodlari va usullari, o'quv mashg'uloti uchun maxsus ta'lim vositalarini tanlash bilan tavsiflanadi.

2. Grafik bilim, ko'nikma va malakalar. Ular ko'rgazmali ta'lim vositalarini yuqori estetik darajada yaratilishi, talablarga mos holda chizmalarni chizilishi va kompyuter dasturlarini ishlata olishi bilan tavsiflanadi.

Konstruktorlik-texnologik bilim, ko'nikma va malakalar buyum detallari chizmasini ishlab chiqish, qayta ishlash metodlari va materiallarini hisobga olish, buyum tayyorlashda konstruktorlik-texnologik hujjatlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Odam gavdasidan o'lchov olish va ularni to'g'ri belgilay olishni, turli bichimdagi kiyimlar asos konstruksiyasini chizish va ularni tahlil qila olish, kiyimni eskizlarini yuqori did bilan tasvirlay olish, buyum andozasini tayyorlashni, erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlarini konstruksiyalash, zamonaviy moda yo'nalishi asosida kiyimlarni texnik modellashtirish asoslari, kiyim andozalarini tayyorlash va ularni to'g'ri rasmiylashtirishning texnik talablari, kiyim andozalarini gazlamaga tejamkorlik bilan joylashtirish, odam qomatida kiyimning asosiy detallarini shakllantirish, kiyimda uchraydigan nuqsonlarni bartaraf qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'quvchilarda loyixalash-texnologik kompetentligini rivojlantirishda texnologiya fani darslarida o'quvchilarda konstruktorlik bilim, grafik bilim va konstruktorlik-texnologik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dokt.dis.-T.: O'MKQHTTKMO va UQTI, 2007.
2. Mamatov D.N. Elektron axborot ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya T: TDPU.: 2017.
3. Abdullayeva Q.M. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari.- T.: TDPU, 2003. -150 b.
4. Зеер Э.Ф, Павлова А.М., Сыманюк Э.Э. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход. Учеб. Пособие для ВУЗов.- М.: Наука. 2005.-216 с